Sirtki abonementning mohiyati Shundan iboratki, kitobxon bu xizmatdan sirtidan, Ineternt orqali kutubxonaga kelmasdan turib foydalanadi. Sirtki abonementda kitobxonlarga xizmat ko'rsatish elektron pochta, telefaks, internetning masofadan axborot uzatish tarmog'i orkali amalga oshiriladi. Sirtki abonement orkali asosan kutubxonaga ega bo'lmagan axoli punktlarida yashovchi kitobxonlar, so'rovlari maxalliy ARM tomonidan kondirilishining imkoni bo'lmagan kitobxonlarga xizmat ko'rsatiladi. Bularga, jumladan, maxalliy ARMlarda topilmaydigan ilmiy va maxsus adabiyotlar olish uchun sirtki abonementdan ko'pincha foydalanib turadigan oliy va o'rta o'quv yurtlarining sirtki bo'limlarida bilim olayotganlar, kishlok fermer xo'jaliklari, chorvador fermerlari, kichik korxonalar, ko'shma korxonalar, ishlab chikarish ilgorlari mustakil o'qib, o'z bilimini oshirish uchun murojaat kiladilar.

Sirtki aboement orkali kitob olish uchun ariza-majburiyat AKMga.

Meni kutubxonangizning sirtki abonementiga a'zo kilib olishingizni so'rayman.

O'zim xakimda kuyidagi asosiy ma'lumotlarni ma'lum kilaman:

Familiyam, ismim, otamning ismi

Tug'ilgan yilim

Millatim

Ma'lumotim(o'rta, oliy, magistratura, qaysi soxa, kasbi) Okuv yurti (agar o'kiyotgan bo'lsa)

ISH joyim

Fermer, korxonaga egasi yoki o'qituvchi bo'lib ishlayman.

Manzilgohim (elektron pochta, yashash joyi)

Pasportim: seriya № berilgan__

Sirtki abonementning barcha koidalariaga bo'ysunishga so'z beraman.

Sana Kitobxonning imzosi

Fukaroning imzosini tasdiklayman:

Sana TaShkilot muxri

Kitobxon imzosi

Tasdiklovchi Shaxsning lavozimi va imzosi.

Sirtki abonementlar orkali kitoblar olish uchun kitobxon kutubxonaga o'zi xakidagi asosiy ma'lumotlarni Internetdan elektron pochta, faks orkali jo'natishi mumkin. Ariza-majburiyat foydalanuvchi ishlab turgan korxonaga, dexkon fermer, chorvador fermer, kichik korxonaga taShkilot raxbari tomonidan tasdiklanadi.

Sirtki abonement pochta, elektron pochta orkali kitoblarning matnini bevosita kitobxonlarga yuboradi, u xam AKM, ARMga kitoblarni pochta orkali kaytarib yuboradi. Kitobxonlarga kitoblar jo'natilish xakini foydalanuvchining o'zi to'laydi. AKM, ARM va kutubxonalarda KAA xam sirtki abonementdan foydalaniSh uchun internet, elektron pochta, pochta, telekommunikation faks orkali kerakli xujjatlarni jo'natilish imkoniyatlari xakida plakatlar ilib ko'yiShi va u so'zlab beriShi kerak.

Kitobxonlarga AKM, ARMlardan taShkarida (nostatsionar) xizmat ko'rsatiSh.

Mamlakatimizning gullab-yashnashi, fuqarolarning ma'rifiy darajasi ko'p jixatdan kutubxonashunos faoliyatiga bogliq, negaki yaxshi kutubxonashunos o'kimiShli, yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalaydi. Kutubxonashunoslik faoliyati ijodkorlikni talab kiladi. Kutubxonashunos maktab jamoasi bilan ota-onalar, maxallalar bilan biryokadan boSh chikarib, xamkorlikda ish olib borishlari muxim axamiyatga ega.

Mutaxassislar mumkin kadam kutubxonani kitobxonlar yashab yoki ishlab turgan joylarga yakinlashtirishga xarakat kiladi. Kitobxonlarga kulaylik tugdirish maksadida u yashab turgan yotokxona, maxalla, korxon va boshka joylarda ko'chma kutubxonalar taShkil kilinadi. Axolining bir kismi asosiy ARMdan ancha uzokda yashaydi va uning abonementi xamda kiroatxonasidan foydalana olmaydi. Shuning uchun kitobxonlarga bevosita AKM, ARMlarda xizmat ko'rsatiSh ish axolini kitob bilan ta'minlashning kutubxonadan taShkari shakllari - tayanch filiallar, kitob beriSh punktlari, ko'chma kutubxonalar va kitob eltuvchilik ishlari, Internet tarmog'i orqali masofadan trib xizmat bilan birga ko'Shib olib boriladi.

AKM, ARM va kutubxona fondlaridan foydalaniSh sharoitini yaxshilash va kitobxonlarni korxon, kichik korxon, dekhon-fermer, chorvador-fermer xo'jaliklariga yakinlashtirish uchun ko'chma kutubxonalaridan foydalanadi, asosiy ARMga ega bo'lmagan korxon va muassasalar, axoli punktlari va mikrorayonlarda kurubxona punktlarini taShkil kiladilar. Ko'chma kutubxonalarining tarmogi kutubxonalar va boshka idoralarning kutubxonalar tizimini xisobga olib va muvofiklashtirib rejalashtiriladi.

On beshdan ortik nostatsionar punktga ega bo'lgan ARMlarda, bolalar ARMlarida va tayanch, shoxobcha kurubxonalarda maxsus fond ajratilishi mumkin, ular fanning turli soxalariga doir dolzarb adabiyotlar bilan to'ldiriladi. ARM punktlari maxsus ajratilgan fondga ega bo'lmasa, abonement fondidan adabiyot oladi.

Ko'chma kutubxona taShkil kiliSh uchun uni ochishga rozilik bergan taShkilot, muassasa yoki o'kuv yurti bilan ARM o'rtasida shartnoma tuziladi. SHartnomaga ko'ra taShkilot yoki muassasa olgan kitoblari uchun moddiy javobgar bo'ladi. TaShkilot, jamoatchilik kutubxona xodimini ajratadi. Unga ishonch xati beradi. Agar ko'chma kutubxonada asosiy ARMning xodimi ishlasa, shartnoma tuzmaydi va unga ishonch xati bermaydi. Asosiy ARMda xar bir kutubxona punkti (ko'chma kutubxona) uchun ikki nusxada formulyar to'ldiriladi; ulardan biri ARMda koldiriladi, ikkinchisi kutubxona punktida saklanadi. Ularga ko'chma kutubxonaga berilgan kitoblar ro'yxati va kaytarib olinganligi to'grisida belgi ko'yiladi. Formulyarga xar bir kitob uchun asosiy ARMning xodimi va ko'chma kutubxona xodimi imzo chekadi. Ko'chma kutubxonaga kitoblarning formulyari olinib, unga ko'chma kutubxonaning nomeri va sana yoziladi, formulyarga solib ko'yiladi, xar bir

ko'chma kutubxonada formulyarga nomlar yozilgan ajratgich ko'yiladi. TaShkilot va muassasada ko'chma kutubxona uchun xona va kitoblar saklaSh uchun joy va kitoblar ajratib beriladi, ko'chma kutubxona mudiri ARMlardan foydalaniSh koidalarga asoslanib, o'z kitobxonlariga xizmat ko'rsatadi. Xar bir kitobxonaga kitobxon formulyari to'ldiriladi. Mudir kitoblarning o'kib bo'liniShiga karab, ularni asosiy ARMga topShiradi va yangilarini olib turadi, o'z kitobxonlariga xizmatni ARM orkali bajaradi. Ko'chma kutubxona mudiri kabul kilingan kitoblarga Shartnoma tuzib, adabiyotlarni asosiy ARMga topShiradi. Agar ko'chma kutubxonada (statsionar) asosiy ARMning mutaxassisi xizmat kilsa, Shartnoma va unga iShonch xati rasmiylaShtirilmaydi. Agar taShkilot yangi mutaxassis mudirini tayinlasa, unga yana kaytadan iShonch xati beriladi. Asosiy ARMda xar bir ko'chma kutubxonaning xujjatlari: iShonch xati, Shartnoma, dalolatnomalar aloxida papkada saklanadi.

Asosiy ARM axoliga nostatsionar xizmat ko'rsatiSh iShini taShkil etiSh va nazorat kiliSh uchun tuman, Internet tarmog'idan uzatadigan elektron ma'lumotlarni tayyorlaydi, Shaxar xududida ko'chma axborot resurs markazlarining joylaShiShi, bibliobuslarning marShruti va to'xtaSh joylarining sxemasini tuzadi; korxonalar, fermer xo'jaliklari, filiallarga xizmat ko'rsatuvchi kutubxona punktlari ixtiyoridagi naShrlarni almaShtiriSh grafigini tuzadi; jamoatchi-kutubxonachilarga metodik yordam ko'rsatiSh rejasini tuzadi.

Kutubxona punktining iSh tartibi xizmat ko'rsatilayotgan axoliga va Shaxar tumanlarida istikomati kiluvchilarga ma'lum kilinadi.

Internet tarmog'idan uzatiladigan elektron ma'lumotlar ARM punktining jamgarmasi o'z ichiga asosiy fan soxalarga doir adabiyotlarni, dolzarb ijtimoiy-siyosiy, badiiy va bolalar adabiyotlarini, eng yangi axborotlarni oliShi kerak. IShlab chikariSh adabiyotlari xizmat kilinayotgan xo'jaliklarning iqtisodiy kasbiy yo'naliShi va kitobxonlarning extiyojlarni xisobga olgani xolda tanlanadi.

ARM punktida tizimdagi kutubxonalar fondida mavjud bo'lgan xar kanday naShrga buyurtma kiliniShi mumkinligi to'grisida e'lon, Shuningdek, kutubxonalararo abonementdan, elektron pochta, faks, internetdan foydalaniSh koidasi bo'liShi kerak.

Jamoatchi kutubxonachi o'z kitobxonlari uchun zarur bo'lgan kitoblarga buyurtmalar oladi, ularni kutubxonaga topShiradi va bajariliShini kuzatadi.

ARM punktining foydalanuvchilarga yangi naShrlar to'grisida axborot beriSh va kutubxona tizimining yagona fondini targib kiliSh, tavsiya, bibliografik ko'rsatkichlar yordamida, elektron ma'lumotlar hamda vakti-vakti bilan taShkil kilinadigan ko'rgazma-ko'riklardan foydalaniSh orkali amalga oShiriladi.

ARM punktining kitobxonlarga xizmat ko'rsatiShga doir ishlarini xisobga oliSh (kitobxonlar soni, katnov soni, berilgan kitoblar, ommaviy tadbirlar va boShkalarning soni) asosiy ARMda ko'llaniladigan kundalikda yuritiladi. Ma'lumotlar kutubxona punkti ixtiyorida bo'lgan ARMning xisobotiga ko'Shib yuboriladi.

Kitob eltuvchilik

AKM, ARM va kutubxonalarda mustakil kutubxonaga kelib-keta olmaydigan nogironlar, nafakaxo'rlar, uy bekalari, kasalxonada yotganlar va boShkalarning uylariga kitoblar eltib beriladi. Bu iShga faol kitobxonlar o'z ixtiyori bilan kitob eltiShni xoxlovchilar jalb

kilinadi. Xar bir kitob eltuvchiga aloxida formulyar to'ldirilib, uning ustiga „Kitob eltuvchi-KE" deb yozib ko'yiladi va xar bir kitobxonga formulyar to'ldiriladi, ularga AKM, ARMdanda foydalaniSh koidalariga amal kilib kitoblar beriladi. Formulyar AKM, ARM abonementida kitob eltuvchining familiyasi yozilgan ajratgich orkasida saklanadi. Kitob eltuvchi kitobxonlarning xuzuriga borganida kitoblar bilan birga kitobxonlarning formulyarini xam olib boradi, ularga berilgan va kaytarilgan kutubxona naShrlarini rasmiylaShtiradi. Kitobxon naShr olganligi uchun imzo chekadi.

Bibliobuslar

Bu kitob taShiShga ixtisoslaShgan avtobusdir. Asosiy ARMdanda belgilangan kun va soatlarda bibliobus ARM xodimi bilan birgalikda ko'chma maxalla punktlari bo'ylab Shaxar joylarida xar o'n kunda bir marta, kiShlok joylarida xar ikki-uch haftada aylanib, adabiyotlar tarkatadi. Bibliobus moShinasida Internet tarmogiga ulovchi tizim urnatib uzok kiShlok, avullardagi axoliga borib xizmat kursatadi. U ko'cha yoki maxallaning ma'lum bir manzilida to'xtaydi. Xar bir manzilda uch soatdan , ko'p to'xtamasligi kerak. Bibliobus mudiri o'zi xizmat ko'rsatayotgan erning ixtisosi va axolisining milliy tarkibiga karab, adabiyotlar oladi yo tarkatadi. Bibliobusda xam barcha kilingan ishlar kundalikka yozib boriladi.

KITOBXONLAR BILAN YAKKA TARTIBDA ISHLASH

Reja:

Kitobxonlar bilan yakka tartibda iShlaSh vazifalari va uni taShkil kiliSh.

Kitobxonlardani intellektual ShakllantiriSh.

Kitobxonda mustaqil iShlaSh faoliyatini takomillaShtiriSh.

AKM, ARM va kutubxonada foydalanuvchilar bilan iShlaSh tizimini islox kiliSh, avvalo, xizmat kiliSh jarayonini individuallaShtiriSh, mutaxassisga o'z kasbiy maxoratini rivojtantiruvchi Shakl va uslublarini tanlaSh imkoniyatini beriShdan iborat. Bu borada kitobxonning mustakil malaka oShiriShga nisbatan yuzaga kelgan extiyoji uning ijtimoiy-amaliy faoliyatini aks ettiradi, kitobxonning o'z extiyojlarini kondiriShga ongli raviShda yo'naltiradi, uni xarakat kiliShga undaydi.

Kutubxonashunos foydalanuvchi kitobxonda bilimga nisbatan kizikiShni orttiriSh uning foydalanuvchiga bo'lgan munosabatiga, ya'ni kitobxonni turli vaziyatlarda namoyon bo'ladigan kaytarilmas o'ziga xoslik xamda aloxida Shaxs yoki berilgan anik ijtimoiy rol yoki vazifani bajaruvchi oddiy kitobxon sifatida ko'ra oliShiga boglik; mutaxassis xodim kanchalik o'zligini anglasa va buni o'z faoliyatida xisobga olsa, u Shunchalik o'z kitobxonlaridagi o'ziga xoslikni ko'ra oladi va bundan o'zaro munosabatida to'gri foydalana oladi.

Xozirgi kunda axborot-kutubxona axborot resurs markazlari xodimlarining mexnatiga ijodiy yondaShiSh bo'yicha talablar xamma kitobxonlarni o'kiSh jarayonida xar tomonlama intellektual ShakllantiriSh topShirigini ko'ymokda. Bu topShirikning eng asosiysi individual xizmat kiliSh jarayonini kitobxonning o'zi demokratlaShtiriSh,

kitobxonlarning mustakil o'qib- o'rganishlariga intilishlarini oshirish, ularning tabiiy kobilyat va kizikishlarini ro'yobga chikishga sharoit yaratishdan iborat.

Foydalanuvchilarning kizikishlari va axborotga bulgan extiyojlarini urganiSh asosida ularga turli xil Shakldagi axborot taShuvchilarni takdim etish bilan tabakalaShtirilgan xizmat kursatiSh aloxida axamiyat kasb etadi.

Kitobxon foydalanuvchilarning savodxonligini ShakllaniShida individual, mustakil topShiriklarning axamiyati juda katta. AKM, ARM va kutubxonada individual mustakil ishlar muammosi xar bir kitobxonning mustakillik va ijodiy faoligini orttiriSh muammosi bilan chambarchas boglik, kitobxonning faol o'kiShi uning oldiga ko'yilgan vazifani tuShuniSh va to'gri bajariShga zaruriyatni xis kiliShdan boShlanadi. O'kiSh jarayonida kitobxonlar faoligi ko'p ta'sirlarga, jumladan, bajarilayotgan ishning xususiyati, uning fikrlaShga va amaliy axamiyatga egaligi kabilar bilan belgilanadi.

Moxirlik bilan tuzilgan topShiriklar ko'pincha kitobxonlarda ijodiy Mustaqillikning namoyon bo'lishiga ko'maklaShadi.

Shu munosabat bilan individual mustakil ishlar va uning turli ko'rinishlariga nazariyotchi pedagoglar o'rtasida xam, amaliyotchi kutubxonachilar o'rtasida xam kizikiSh ortib boryapti. Ilgor ish tajribasi individual mustakil ishlarning kitobxon Shaxsini xar tomonlama intellektual va ijodiy rivojlaniShida sezilarli axamiyatga ega ekanligini ko'rsatmokda. Bunda individual mustakil ishlarni taShkil kiliShda kutubxonachi kitobxonlarning xammasiga bir xil topShirik berib, Shu bilan birgalikda, kitobxonlar bu topShirikni bajariShda o'zining individual xususiyatiga asosan turli echimlar taklif kiliSh imkoniyati katta axamiyatga ega.

KutubxonaShunoslik fanining xususiyatlari va imkoniyatlarini xisobga olib, axborot-kutubxonada mustakil ish topShiriklari kuyidagi konseptual talablarga javob beriShi zarur:

1. Xar bir topShirik yakka xolatda bo'lishi kerak.

2. TopShirik kitobxon tomonidan uning turli kizikishlarini xisobga olgan xolda tanlaniSh imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

TopShirik kitobxonning intellektual kobilyatlarini ochib, uni bajariShda ijodkorlikning paydo bo'lishiga asos bo'lishi zarur.

TopShirikni mustakil bajarib, egallangan bilim va malakalarni xayotda qo'llay oliSh kunikmalarini xosil kiliShi lozim.

TopShirik nafasat, ijtimoiy va yangi texnologik yo'nalishlarga ega bo'lishi kerak.

TopShirik kitobxonga emotsional (o'yin elementlari, go'zallik kabi) ta'sir ko'rsatiShi kerak.

TopShirikdan barcha fanlarning o'zaro alokalari sezilib turiShi kerak.

TopShirikni bajariShda iloji boricha, yangi texnologiyadan foydalaniSh imkoniyati bo'lishi zarur.

Kitobxon foydalanuvchining so'rovi va kizikiShini o'rganiSh

Kitobxon bilan individual ishlaShda kitobxon kizikiShi va so'rovlarini o'rganiSh birinchi darajali axamiyatga ega. Xar bir kitobxonga xizmat ko'rsatiShda kutubxonachi uning ixtisosini, ma'lumotini va o'kiShini yana davom ettiriShi yoki ettirmasligini, yoShi, oilaviy axvoli, kanday jamoatchilik ishlarini bajariShi, nimalarga kizikiShi, nima o'kiShni

istaShi, kanday o'kiShi, ya'ni o'kiSh madaniyatiga egami yoki yo'kmi ana Shularning xammasini yaxShi biliShi kerak. Kitobxon tavsifidagi bar bir xususiyat, xar bir xislat kutubxonachi iSh faoliyatida askotiShi mumkin.

Kitobxonning kizikiShi kator omillar ta'siri ostida o'zgarib, chukurlaShiShi xamda kengayiShi mumkin. Bunda uning kitobga bo'lgan munosabati xam, kitobxonlik kizikiShi xam o'zgaradi. Shuning uchun kitobxondagi o'zgariShni kuzatib, paydo bo'lgan kizikiShni kondiriShga yordam beriSh, bu kizikiShni chukurlaShtiriSh va o'stiriSh, Shu bilan birga yangi kizikiSh paydo kiliShga uriniSh kerak.

Mutaxassis xodimning kitobxonni yaxShi biliShidan taShkari, xar bir kitob u yoki bu kitobxonga kanday ta'sir ko'rsatiShini, Shu kitobni kitobxonlarning qaysi biriga tavsiya kiliSh mumkin ekanligini belgilaSh uchun kitoblarni yaxShi biliShi muxim axamiyat kasb etadi. Kitob va kitobxonni biliSh Shunday asoski, kutubxonaShunoslikdagi moxirlik mana Shu asosga tayanadi, kitobxonlar bilan iShlovchi xar bir mutaxassis xodim uchun bu moxirlikni o'stirib, takomillaShtirib boriSh nixoyatda zarur, kitobxon bilan individual iShlaShni busiz to'gri taShkil kiliSh mumkin emas.

Mustakil o'kiShga raxbarlik kiliSh

Mutaxassis xodim xar bir kitobxonga xizmat ko'rsatiShda o'z oldiga ko'ygan anik vazifalarni yaxShi biliShi zarur. Ba'zida kutubxonachining vazifasi yangi kelgan kitoblar xakida oddiy ma'lumot beriShdan, ba'zida o'kiSh madaniyatini tarbiyalaShdan, yana boShka paytda esa kitobxonga doimiy raviShda diqqat-e'tiborli bo'lib, unga kitob tanlaShda yordam ko'rsatiShdan iborat bo'ladi. Vazifani aniklab olgach, kutubxonachi bu vazifalarni bajariShning anik tadbirlarini xam: kitobxon bilan suxbat o'tkaziShni, elektron ma'lumotlarni kidirib topiSh, internetdan yangi axborotni elektron pochta orkali uzatiSh, Virtual kutubxonadan axborotlar oliSh, bibliografik ko'rsatkichni yoki kitobni tavsiya kiliShni belgilab oladi. SHunday kilib kitobxon bilan individual iShlaSh, bu kundalik, e'tibor talab etadigan va juda ma'suliyatli mexnatdir.

Kitobxon bilan yakka tartibda iShlaSh o'zining barcha yo'nalishlari bilan kutubxonaning" asosiy vazifasi - o'kiShga raxbarlik kiliSh vazifasiga bo'ysundirilgan. Malakali kitobxonga uning mutaxassisligiga oid yangi adabiyot, axborot, elektron ma'lumotlarni tavsiya kiliSh yoki yoSh iShchini siyosiy, ijtimoiy adabiyotni mutolaa kiliShga jalb etiSh kabi barcha xollar ta'sir ko'rsatiShning faol maqsadga yo'naltirilgan jarayonidir.

KutubxonaShunoslik tajribasida kitobxonlarni uch guruxga - kitobxonlikka tayyorgarligi bo'lgan, kitobxonlikka tayyorgarligi kam bo'lgan va tayyorgarligi bo'lmagan kitobxonlarga bo'liSh odat bo'lib kolgan. Bunda xar qaysi guruxdagi kitobxonga turlicha yondaShiSh lozim.

1. Tayyorgarligi bo'lgan kitobxon foydalanuvchi ixtiyoriga kutubxonaning ochik fondini va elektron katalogini topShirib ko'yib, u bilan yakka tartibda olib boriladigan iSh axborot tarzida, ya'ni ma'lumot-bibliografiya xizmati ko'rsatiSh va ayrim kitoblarni tavsiya kiliSh bilan cheklaniShi mumkin.

2. Tayyorgarligi kam bo'lgan kitobxon foydalanuvchilar bilan iShlaganda mutaxassis xodimning asosiy xarakati kitobxonga o'kiShning yuksak madaniyatini, mustakil iShlaSh malakalarini singdiriSh, muayyan mavzu va masalalarni o'rganiShga bo'lgan kizikishlarini

orttiriShga karatilgan bo'ladi. Bunda maslaxat, suxbat o'tkazishi, rejali o'kishni targib kiliSh kabi ish usullaridan foydalaniladi.

3. Tayyorgarligi bo'lmagan kitobxon foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda suxbat eng asosiy usul xisoblanadi. Akm, Arm va kutubxonaga kelgan kitobxon bilan adabiyot, Internet tarmogidan yangi axborotlar olish, elektron pochtdan axborotlarni junatish to'grisida suxbatlashmay yuborish mumkin emas.

Mutaxassis xodimning kitob berishga tayyorgarlik ko'riShi

Mutaxassis xodimning abonementdagi ish kuni kitob berishga tayyorgarlik ko'riSh bilan boshlanadi. hozirgi kunda kitob beruvchining ish joyi avtomatlashtirilgan bulib, xodim kompyuterda maxsus dastur asosida foydalanuvchi kitobxon surovini kondiradi. Kitob berishga tayyorgarlik ko'rar ekan, kutubxonachi o'z oldiga anik vazifalar ko'yadi.

Birinchiidan, kitobxon diqqatini jalb kila oladigan dolzarb mavzularni, xal kilinishi juda muxim bo'lgan masalalarni belgilaydi.

Ikkinchiidan, Internet tarmogi orkali yangi Web-saytlarni kurib chikish, elektron katalogga joylashtirilgan yangi adabiyotlar, elektron ma'lumotlar bilan taniShib chikish, elektron pochtni ochib kurish, kutubxonachi kutubxonaga kelgan yangi adabiyot xamda ko'rgazmaga ko'yilgan yoki ochik fond tokchalariga ko'yilgan adabiyot bilan, Shuningdek, yangi bibliografik ko'llanmalar bilan tezda taniShib chikishi zarur.

U yoki bu asar bilan taniShishda uning kanday kitobxonga mo'ljallanganligini, uning kitobxonga kanchalik foydali yoki kizikarli bo'lishini oldindan belgilaSh maqsadga muvofikdir.

Xulosalar aloxida kartotekaga yozib borilgani ma'kul, chunki bu kartotekaning xar bir kartochkasi bitta kitobga tegishli bo'lib, mutaxassis xodimga uning mazmunini yoki kitobxon bilan suxbatlashish uchun eng muxim muammolar va savollarni eslatib turadi.

SHundan keyin mutaxassis xodim kitobxon formulyarini taxlil kiliShga kirisadi. Kitobxon bilan abonement bo'limida uchraShish uzok davom etmaydi. UchraShuv davomida mutaxassis xodim kitobxon formulyaridagi yozuvlar bilan taniShmogi, o'kilgan kitob to'grisida u bilan suxbatlashmogi, yangisini tanlab tavsiya etmogi, ko'rgazmalar bilan taniShtirmogi, Internetdagi axborotlar, yangi Web-saytlar, elektron katalog xakida suxbatlashmogi kerak. mutaxassis xodim mustakil o'kishiga raxbarlik kilayotgan kitobxonlarning formulyarini xar kuni ko'zdan kechirmogi kerak. Suxbat tafsilotini oldindan aytiSh mumkin emas, bu suxbatlarning xar biri tubdan individual xarakterga ega bo'lib, tevarak-atrofdagi vaziyatga, kitobning mazmuni, xatto kitobxonning kayfiyatiga boglikdir. Suxbat kuruk, bemaqsad so'zlashuvga aylanmasligi uchun u oldindan o'ylab ko'yilgan bo'lishi, ba'zan esa asosiy fikr kiskacha yozib olinishi kerak. Oldindan o'ylab ko'yilgan suxbatlar aniklovchi suxbatlar bo'ladi.

Tayyorgarlik ko'riSh jarayonida kutubxonachi ayrim kitobxonlar o'kishining kanday izchillikda boriShini o'ylab chikadi, o'kishning individual rejalarini, kitoblar ro'yxatini tuzadi. Bu ishlarda turli bibliografik ko'llanmalardan foydalaniSh unga katta yordam beriShi mumkin.

YAkka tartibda suxbat utkazish

Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxonalar iShida yakka suxbat aloxida o'rin tutadi. Xech kanday iSh Shakli mutaxassis xodimning kitobxon bilan og'zaki, yuzma-yuz turib muomalada bo'liSh o'rnini bosolmaydi. Suxbat vaktida mutaxassis xodim va kitobxon bir-birlarini biladilar, suxbat ularni yakinlaShtiradi, kutubxonachiga xar bir kitobxon kizikiShini aniklaShda, kitob tanlaShda ularga yordam beriShda juda katta imkoniyatlar yaratadi.

KutubxonaShunoslik iSh tajribasida mutaxassis xodim kitobxon bilan suxbatlaShganda quyidagilarga amal kiliShi lozim:

- Suxbat kitobxon kizikishlariga taallukli bo'liShi kerak.
- Mutaxassis xodimning maslaxati zo'rma-zo'raki, gamxo'rliqi keraksiz bo'lib kolmasligi kerak.
- Xar kanday yangi goya va yangi bilim kitobxonni bilim va goya boyligi bilan boglaniShi kerak.
- Suxbatdan ma'lum maksad bo'liSh kerak.
- Kitobxonni suxbatga zo'rma-zo'raki tortmaslik kerak, uning kayfiyatini, suxbatlaShiShga moyilligini xisobga oliSh kerak. Unda suxbat uchun xamma vakt etarli vakt bo'lavermaydi.
- Asarning mazmunini so'zlab bermaslik kerak.
- Kitob xakida gapirilayotganda, uni ko'rsatiSh xamda kitobxon bilan birgalikda varaklab, suratlari, mundarijasi bilan taniShiSh kerak.
- Kitob xakida ifodali, kizikarli kilib, Shu bilan birga, kiskacha kilib kitobxon diqqatini tortadigan va kiziktiradigan o'rinlaridan so'zlab beriSh kerak.

Kitobxon bilan o'tkaziladigan yakka suxbatning to'rtta asosiy turi bor:

1. Kitobxonning kutubxonaga a'zo bo'layotgan paytidagi suxbat.
2. Tavsiyaviy suxbat.
3. O'kilgan kitob xakida suxbat.
4. O'kiSh rejasi tuziSh vaktidagi suxbat.

Kitobxonning axborot-kutubxonaga, axborot resurs markazi va kutubxonaga **a'zo bo'layotgan vaktidagi suxbat**

Kitobxonning kutubxonaga a'zo bo'layotgan vaktidagi suxbat mutaxassis xodimdan katta e'tibor talab kiladi. Bu suxbatga ko'p narsa boglik bo'ladi: yangi kitobxonning kim ekanligi, nimalar o'kigani va nimalar kilmokchi ekanini aniklaShga yordam beradi. Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari xakida, uning kitob fondi, elektron katalog, Internet tarmogi, yangi axborotlar xakida so'zlab beriSh esa mutaxassis xodimning burchidir. Mutaxassis xodim kitobxonni ilgari kaerda va kanday kitoblar o'kiganligini so'raSh bilan, uning kanchalik o'kimiShiiligi va nimalarga kizikiShini aniklaShi mumkin. Kitobxon formulyarini to'ldirayotganda mutaxassis xodim uning iShlab chikariSh va jamoatchilik faoliyati xakida, ma'lumoti xakida, u o'kiShni davom ettiryaptimi, davom ettirayotgan bo'lsa, qaysi yo'l bilan davom ettiryapti va xokazolar xakida bilib oladi. Bularning barchasi kitobxonning kizikiShi xakida so'zlab beradi, mutaxassis xodimga axborot-kutobxonning so'rovlarini anik belgilab oliShda va kitob tavsiya kiliShda yordam beradi. Birinchi tavsiya kilingan kitob unga yokiShi juda muxim

axamiyatga ega. Suxbat tavsifi kitobxonning individual ;ususiyatlariga va madaniy darajasiga bog'lik. Masalan, kizikiShi anik bo'lgan, ko'p o'kigan kiShilarga kutubxonachi fond kanday joylaShganligini tuShuntirib beriSh bilan birga, uning diqqatini mutaxassislikka oid adabiyotga jalb etadi, ma'lumot-bibliografiya apparati bilan taniShtiradi. Tayyorgarligi kam bo'lgan kitobxonga esa bo'limlar kanday joylaShganligini ko'rsatiSh bilan cheklanmay, balki ular nimalarni o'z ichiga kamrab oliShini, xar bir bo'lim kanday masalalarni xal kiliShda ko'maklaShiShini so'zlab beriShi kerak. Shuningdek, ayrim kitoblarni ko'rsatiSh, ular xakida so'zlab beriSh, ularni kanday tanlab oliSh lozim ekantigini tuShuntiriSh lozim.

Otkazilgan birinchi suxbat xakida kitobxon formulyariga yoziladi va kutubxonachi so'rab ulgurmagan savollar belgilab ko'yiladi.

Tavsiyaviy suxbat

Tavsiyaviy suxbat yakka kitobxon tayyorgarligiga va uning so'roviga bog'likdir.

Mutaxassis xodim kitobxonga tavsiya kiliSh uchun kitob tanlayotganida tarbiyaviy vazifalarga amal kiladi. U kitobxon uchun eng yaxshi dolzarb, foydali va kizikarii kitoblar tanlaShga intiladi. Kitob, eng yangi axborotlar, Web-saytlar xakida so'zlab beriSh, so'zlaganda xam kitobxonni kiziktiradigan kilib gapirib beriSh zarur. Kitobdagi kizik bir epizodni so'zlab beriSh, asardan parcha ko'yib beriSh, Web saxifalarni birgalikda kuriSh mumkin. Kitob, elektron ma'lumotlarni tavsiya kiliShda uning amaliy kiymati aytiladi. Shuning uchun kitobni tavsiya kiliShni kizikarli savollardan boShlaSh kerak.

Tavsiyaviy suxbati - kutubxonalarda olib boriladigan suxbatlarning ayniksa, keng tarkalgan turidir. Kitobxonni tayyorlaSh deganda, uning o'kiSh madaniyati, muayyan soxa bo'yicha bilim darajasi nazarda tutiladi. Bunda ayni bir kitobxonning o'ziga yakin bo'lgan soxaga murojaat kiliShiga karab, o'ziga turlicha yondoShiShni talab kiliShini xisobga oliSh kerak. Kitobxonga mazkur soxa bo'yicha tavsiya etilayotgan kitobning boShka asarlardan fark kiluvchi o'ziga xos xususiyatini ta'kidlab o'tiSh, unda matbuotda berilgan baxo xakida, unda ko'tarilgan masalalar xakida so'zlab beriSh kerak. Tavsiya vaktidagi suxbat xarakteri kitobxonning kitobga bo'lgan extiyojiga xam bog'likdir. Kitobxonning so'rovi juda turli-tumanligi bilan farklanadi. Ular mamlakatning siyosiy va ma'naviy, madaniy xayoti bilan, kitobxonning ma'lumoti, uning madaniy darajasi va maksadi bilan bog'lik.

Kitobxonlarning talabi, extiyoji va kizikishlarini o'rganiSh

Axborot -kutubxona tizimi yangicha fikrlovchi intellektual Shakllangan yoSh avlodni tayyorlaShga karatilgan bo'lib, uni amalga oShiriSh esa xalkning ma'naviy uygoniShiga va mamlakatning akliy salohiyatini oShiriShga olib keladi. YOSh avlodni ma'rifatli, madaniyatli intellekt bo'lib ShakllaniShida axborot-kutubxonaning xam o'rni kattadir. Axborot-kutubxonada soglem ma'naviy-axlokiy muxitni vujudga keltiriSh, kitobxonni ma'lum yo'naliShda tarbiyalaSh, uning kizikishlarini o'rganiSh, takomillaShtiriSh ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-tarbiyaviy jixatdan dolzarb mavzu bo'lib, uni milliy kadriyatlardan chukur va xar tomonlama foydalangan xolda tadkik etiSh davrimizning muxim talabidir.

Axborot -kutubxonada kitobxon talabini, ehtiyojini, kizikishlarini o'rganiSh va yangi texnologik usullardan foydalanib, fan asoslarini kitobxonlarga singdirish kutubxonashunoschilik faoliyatining bosh maksadini taShkil etadi. Kitobxonning talabini, ehtiyojini, kizikishini o'rganiSh usullari orkali kitobxonning tafakkuri rivojlanadi, elektron m'lumotlarni, Internet materiallaridan foydalanish, kitob o'kiShga, mustakil o'z ustida ishlaShga, muntazam o'kiSh ishtiyoki ortadi.

Kutubxonashunoslik fanining muammoli tomoni Shundaki, bu mantiqiy fikr yuritish jarayonlarini (analiz va sintez kiliSh, takkoslaSh, umumlaShtirish, tasniflaSh (klasifikatsiyalaSh) va xokazo) va kitobxonlarning izlanishini (tadqiqotchilik) faoliyati konuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga kizikish, ma'naviy ehtiyoj, talabning kuchliligi kabilarni) xisobga olib tuzilgan axborot-kutubxon tizimining oldindan ma'lum bo'lgan usullarini ko'llaSh koidalarning yangi tizimidan iborat. SHu bois u ko'prok kitobxonda fikrlaSh kobiliyatining rivojlaniShi, uning umumiy taraqqiyoti va e'tikodi, intellektining Shakllanishini ta'minlaShga xizmat kiladi.

Kitobxon kizikishini o'rganiSh yo'li bilan faollaShtirishning maksadi kitobxonni favkulodda betartib raviShda vujudga keladigan fikrlaSh operatsiyalariga o'rgatish emas, balki ularning tushunchalarini o'zlashtirish darajasini oshirishlar, xar xil muammoli masalalarni taxlil kiliSh (echish) uchun akliy xatti-xarakatlar tizimini egallaShga yo'naltirishdan iboratdir. Mazkur faollik Shundan iboratki, bunda kitobxon mavjud resurs elektron materiallarni taxlil kilib, ularni takkoslab, umumlaShtirib, so'ngra undan o'ziga tegishli, yangi axborot va ma'lumot oladi. Kitobxonlarning ijodiy izlanishga o'rganiShi, akliy mexnat tizimini egallaShga yo'naltiriliShi o'kiSh ko'nikmalari va malakalarining to'planiShiga sabab bo'ladi. Bu esa akliy faoliyat sifatining o'zgariShiga, ilmiy, tankidiy, mantiqiy, mustakil va ijodiy fikr yuritishga olib keladi. Kitobxon bilan ishlaShning asosiy vazifalari:

- Kitobxonning bilimlar tizimi, akliy vaamaliy faoliyat yuritish usullari xamda yo'llarini o'zlashtirish.
- O'kuv, mustakil bilim va ijodiy kobiliyatni o'stirish.
- Muayyan e'tikodli, mustakil dunyokaraShli, iymonli Shaxslarni Shakltantirish.
- Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish malakasini Shakllantirish (mantiqiy fikrlaSh usullari, ijodiy izlanish faoliyati vositalarini ko'llaSh).
- Ijodiy faoliyat tajribasini umumlaShtirish va yoyish.

IV bo'lim. FOYDALANUVCHI KITOBXONLARNING KIZIKISHINI O'RGANISH

Reja:

1. Foydalanuvchi kitobxonlar kizikishini o'rganiSh
2. Foydalanuvchi kitobxonlarning talab va kizikishlarini o'rganiSh usullari
3. Foydalanuvchi talabining turlari (anik, noanik, mavzular bo'yicha) va individual axborotlar

O'zbekiston istiklolga eriShgach, davr oldimizga demokratik va insonparvarlik goyalariga asoslangan, Shaxsning kobiliyati, imkoniyatlarini xisobga olgan, davlat xamda jamiyatning talablarini o'zida tola aks ettira oladigan milliy modelni yaratishi vazifasini ko'yadi.

O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos axborot-kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxonalar tizimi, milliy mafkurasi, umumbaShariy tamoyillari, xalkimizning urf-odatlari, ma'naviy kadriyatlar xamda mustakillik yillarida vujudga-kelgan va intellektual Shakllangan yangi avlodni xar tamonlama kamol toptirishga xizmat kiladi.

YAngi avlodning xar tomonlama kamol topishi unda murakkab intellektual xususiyatlar - Shaxsning yo'naliShi, kobiliyat, juShkinlik (temperament) va mijoz (xarakter) xislatlarining Shakllanishi axborot-kutubxonada uning kizikishlarini o'rganiSh jarayonida aniklanadi.

AKM, ARM va kutubxonada kuzatuv uslubi kitobxonning o'kiShga munosabatini, ma'suliyatini, bilimga intilishini aniklaydi. Tabiiyki, kitobxonga bunday xislatlarni belgilaShda uning mijoz, xulki, butun ijtimoiy jixatlariga katta axamiyat beriladi. CHunki kitobxonning bilim va ko'nikmalarini aniklaShda uning Shaxsiy, oilaviy, axlokiiy tomonlari muxim rol o'ynaydi.

Kitobxon kizikishini o'rganiSh maksadida olib boriladigan suxbatni kitobxonning Shaxsiy ijtimoiy axvolidan boShlaShimiz va bu ishni uni muntazam kuzatish bilan birga olib boriShimiz zarur. CHunki xar kanday usul yakka xolda ko'llanilganda kitobxon xakida to'la ma'lumot bera olmaydi, boShka bir yoki ikki usul esa kamchilikni to'ldiradi yoxud xatoni to'grilaSh imkonini beradi.

Xar bir axborot-kutubxona kitobxonlarga kitoblarni tanlaSh va ulardan foydalaniShda amaliy va maqsadga muvofik yordam ko'rsatib, o'z kitobxonlari kizikishi va so'rovlarini kondirishga intiladi. Bunga mutaxassis xodim o'z kitobxonlarini, ularning ijtimoiy ishlab chikarish, kasbiy bilim, ko'nikma, malakaviy va madaniy darajalarini, talablarining turini (ijtimoiy, yukori saviyali, bilishga kizikish va boShkalarni) anik tasavvur kila olsagina erishiShi mumkin. Ammo kitobxonlarni Shundok, o'z-o'zidan bilib bo'lmaydi. Bunga kitobxonlarni, ularning so'rovlarini, kizikishi va extiyojlarini muntazam o'rganib boriSh jarayonida erishiladi. Bu esa undan kasbiy bilim, ko'nikma va boShka bilimlar bilan bir katorada, boShkaruv jarayonini, asosiy taShkilotchilik tuzilishi, menejerlik ish uslubi va vazifaviy majburiyatlarni, boShkaruv darajasiga karab javobgarlikni va mas'uliyatni ta'minlaSh ukuvi, boShkaruvchilik faoliyatining samaradorligini oShirish, kobiliyatini takomillaShtirib boriSh yo'llari xakidagi ma'lumotlardan xam xabardor bo'lib, ularni o'z Shaxsiyatida mujassamlaShtirib boriShni talab kiladi. Bunda boShkaruvchilik faoliyati uchun mutaxassis xodim avvalambor axborot texnologiya va telekommunikatsiya vositalari to'grisidagi bilimlarga, xam yozma, xam ogzaki raviShda mustakil o'z fikrlarini ifodalay olish ukuviga ega bo'lishi kerak.

Albatta, yukorida kayd kilingan barcha muloxazalarni to'gridan-to'gri real faoliyatda tadbik etish ancha murakkablikni vujudga keltiradi. Bunga faoliyat motivlarini aniklaSh, maksadni to'gri belgilab olish, kizikishlarni boyitib boriSh va kat'iy mexnat asosida erishiladi, chunki murakkab faoliyat yo'naliShi bo'lganda uni bajariSh darajasi uzok muddatli bo'ladi va imkoniyatni to'gri taksimlaSh ta'sirida amalga oShiriladi.

Kitobxonlar kizikiShi nima va u nima bilan belgilanadi?

Kitobxon kizikiShi, odatda, inson umumiy kizikiShining ma'lum kismi ifodasi bo'lib, u yana ma'tum yo'naliSh bo'yicha kitob tanlaSh vaktida qaysi masalalar (mavzular, bilim soxalari) bo'yicha kiShining kitob o'kiShni afzal ko'riShligida ifodalanadi. Keyinchalik esa kitobxon kizikiShi o'kilgan kitobni kanday idrok etiShida, unga kanchalik o'ylab, tankidiy yondoShiShida, kitob ustida kanday iShlaShida, o'kiganlaridan xayotida, faoliyatida kanday foydalaniShida o'z ifodasini topadi.

Ko'pincha kitobxon fakat kitob mazmuniga emas, balki materiallarning bayon kiliniShi borasida o'z talablarini ko'yadilar va u bilan kizikadilar. CHunonchi, masalan, badiiy adabiyot soxasida turli kitobxonlarni xar xil janrlar kiziktiradi: birlari roman o'kiShni yoktiradilar, boShkalari She'r, ocherk, xikoyalar, milliy kadriyatlar, o'tmiSh xakida tarixiy asarlar, ba'zilar esa xatto kitobning xajmi (kalinmi yoki yupkami) bilan kizikadilar.

Kitobxonlar kizikiShi - ijtimoiy xodisalar. Bu kizikiSh ijtimoiy xayot tufayli vujudga keladi va insonning ijtimoiy, iShlab chikariSh, kasbiy xamda ruxiy kizikishlarini aks ettiradi. Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlarining kitobxonlari, korxonalar, kompaniya, bank, biznes, kichik korxonalar, dexkon fermer xo'jaliklarida iShlaShlari yoki turli oliy va o'rta maxsus o'kuv yurtlarida o'kislari mumkin.

Ularning oldida juda xilma-xil, anik vazifalar turadi. Bu vazifalarni xal kiliShda iShtirok etiSh muayyan talab va kizikishlarni Shart kilib ko'yadi, xar bir iShning muvaffakiyatli xal bo'liShi uchun yordam beruvchi yo'llarni izlaShga to'g'ri keladi.

SHunday kilib, u yoki bu kizikishlarning paydo bo'liShi tasodifiy emas. Ular kitobxonlarning oilaviy xayoti, mexnat va ijtimoiy faoliyatlariga boglikdir.

Kitobxonlarning kizikiShini, bu kizikishlarini paydo kilayotgan, u yoki bu so'rovlarini, kitobga bo'lgan munosabatlarini, uning idrok etiliShini keltirib chikarayotgan Shart-Sharoitlarni o'rganiSh bilangina to'g'ri biliSh va tuShuniSh mumkin. Buning uchun xayotga diqqat bilan karaSh, uni kuzatiSh, o'rganiSh va tuShuniSh kerak.

Mustakillikni mustaxkamlaSh yillarida kitobxonlarning talab va kizikishlari tamomila o'zgardi. Xalk madaniyatining o'siShi jarayonida doimiy o'sib borayotgan ma'naviy extiyoj kitobxonlar kizikiShiga xam ta'sir ko'rsatdi. SHu kizikishlarda mustakil demokratik, xuquqiy erkin, mustakil fikrlovchi, erkin va ozod yurt fukarosining yukori ma'naviy va axlokiy darajasi, yangi ma'naviy kiyofasi xam o'z aksini topadi.

Xozirgi davrda kitobxon kizikiShining kengayiShi va chukurlaShiShi umumiy xodisadir. CHunki kitobxonning o'kuv-biliSh faoliyatini boShkariShda kompyuter texnikasi markaziy o'rinni egallamokda:

- kitobxonning axborotni kabul kiliSh, to'plaSh, saklaSh, uzatiSh va kayta iShlaSh soxasidagi bilim va ko'nikmalarini ShakllantiriSh;

- kitobxonlarni jamiyatga zarur Shaxs sifatida ShakllantiriSh va rivojlantiriSh;

kitobxonning kizikiShini, talabini, extiyojini bugungi kunda yangi texnologiyagina kondira oladi, masalan, kompyuter orkali axborot jarayonlari, axborotning xususiyatlari, axborotlar ustida amallar bajariSh, axborotni tasvirlaSh, aloka vositalari va boShka ma'lumotlar bazalaridan foydalaniSh, mavjud amaliy dastur vositalarini ko'llaSh.

Kitobxonlar kidiradigan elektron ma'lumotlar kompyuter ko'magida echiSh boskichlarini bajara oliSh; berilgan matnni kompyuterda terib, zarur taxrir ishlarini bajarib, yakuniy matnni kogozga chikariSh; murakkab bo'lmagan Shakllarni rasm muxarriri yordamida chiziSh, ularga zarur ranglar beriSh; elektron jadvallar tuziSh va unga oid oddiy misollarni echa oliSh; tayyor amaliy dastur vositasida elektron katalogdan kerakli adabiyotni kidiriSh, internetga kira oliSh, onlayn rejimi maxsus dastur yordamida internetga kiriSh orkali jaxondagi boShka kutubxonalar bilan o'zining extiyojini, kizikiShini kondiriSh uchun talab bilan chikiSh muammolarini xal etiSh uning asosiy maksadidir.

Kitobxonlar kizikiShini guruxlarga bo'lib o'rganiSh yukori samaradorlikka olib keladi. IShlab chikariSh guruxlari, masalan, turli xil kasbdagi iShchilar, kichik korxonalar iShchilari, chorvador fermer, dexkon former xo'jaliklari, mutaxassislar, do'xtirlar, o'kituvchilar va boShka soxa mutaxassislarining professional kizikishlari maxsus adabiyotni talab kiladi: yoShiga karab bo'lingan guruxlar - bolalar, yoShlar, nafakaxo'rlar bo'lib, ularning kitobxonlik talabiga psixologiya, yoSh xususiyatlari ta'sir kiladi. Kitobxonlar o'z mutaxassisliklariga oid kitoblar bilan kizikadilar chamasi, bu kizikiSh ayni bir paytda barqaror kizikiSh bo'ladi. Kitobxon kizikiShidagi barqarorlik, ayniksa, kitobdan o'z iShi uchun yordam izlovchi kiShilarga va Shuningdek, iShlab chikariSh malakalarini oShiriSh bilan yoki mustakil bilim oliSh bilan Shugullanuvchi kiShilarga xos xususiyatdir.

Ba'zi kitobxonlar axborot-kutubxonaga anik bir narsani so'rab kelmay, duch kelgan kitobni oladilar, mutaxassis xodimdan o'kiShga, „biron narsa" beriShini iltimos kiladilar. Bu ana Shunday kitobxonda biron kizikiSh yo'k, degan ma'no bildiradimi? Yo'k, albatta. Ular iShlab turgan korxonalar, fabrika, chorvador fermer, dexkon fermer, kompaniya, firma, bank, programmistlar, ta'lim tizimida iShlovchilar, gazeta, klub, teatr, radio, televidenie, oila kabilar ularning so'rovlariga ta'sir ko'rsatadi. Gap Shundaki, kitob o'kiShni endi boShlayotgan bu xildagi kitobxonlar ko'p masalalarni xal kiliShda kitob ularga yordam beriShini bilmaydilar. Mutaxassis xodimning vazifasi - bu kitobxonning o'kiSh mavzusini kengaytiriSh, kitoblar orkali ularda keng ijtimoiy kizikiShini uygotiSh, ularning xayoti, iShlab chikariSh va murojaat kiliSh zaruratini orttiriSh uchun butun kuchini sarf kiliShdan iboratdir.

Kutubxonachi kitobxonda paydo bo'lgan kizikiShni kondiribgina kolmay, balki xar tomonlama rivojlangan Shaxsni tarbiyalaSh vazifalaridan kelib chikkan xolda yangi kitobxonlik kizikishlarini uygota oliSh, yukori darajadagi kitobxonlik didini va turli so'rovlarini tarbiyalaShi lozim. Kutubxonachining asosiy pedagogik, tarbiyaviy iShi ana Shundan iborat.

Kitobxonlar kizikiShini o'rganiSh

Milliy urf-odatlar, xalkning yaShaSh Sharoiti, xayot tarzi, milliy xususiyatlari ming yillar davomida xayot atalmiSh murakkab sinovlardan o'tib, xalkning o'ziga xos tuzugi - konuni darajasiga ko'tarilgan. Mustakillik Sharofati bilan bugunga kelib ajdodlarimizdan kolgan bebaxo merosni o'rganiSh, amaliyotga tatbik etiShga Shart-Sharoit yaratildi.

Xozirgi davrda axborot-kutubxona tizimini takomillaShtiriSh, milliy laShtiriSh uchun jaxon andazalariga mos keladigan pogonaga ko'tariliShda boy milliy-madaniy

merosimizga, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga, yangi davrning yangi talabiga aloxida axamiyat beriSh kerak.

Kitobxonlar kizikiShini o'rganiSh murakkab va ko'p kirrali jarayon bo'lib, uni o'ylab va tizimli raviShda olib borgandagina kutilgan natijalarga eriShiSh mumkin. Bu o'rinda kitobxonlar kizikiShi fakat kutubxona tomonidan emas, balki butun xayot, tevarakatrofdagi borlik tufayli ShakllaniShini xam unutmashlik kerak.

Kitobxon nimaga kizikiShini biliSh uchun kitobxonning mexnat kilayotgan va turmuSh kechirayotgan anik Shart-Sharoitlarini tasavur kiliSh kerak, eng avalo, kitobxonning u yoki bu kizikishlari ShakllaniShida manba bo'lib xizmat kiladigan Sharoitlarni biliSh kerak.

Xizmat ko'rsatilayotgan axoli kizikishlarini biliSh uchun, maxalliy o'lkaning o'ziga xos xususiyatlarini, axolining nima bilan Shugullanishlarini va uning madaniy darajasini o'rganiSh kerak.

KutubxonaShunos maxalliy Sharoitlarni o'rganayotganida, chorvador, dexkon fermer xo'jaliklari yoki tuman xo'jaligi rivojlaniShining yo'naliShi bilan, ularning iktisodi, korxonalari, muassasalari va taShkilotlari, xususan, madaniyat, ma'naviyat muassasalari bilan taniShadi.

Milliy kadriyatlarimizni asliga keltiriSh va rivojlantiriShda xalkimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlarini, milliy bayramlari, boy kadimiy merosi o'zining aloxida o'rni va axamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'analarimiz avlod-ajdodlarimizdan bizlarga etib kelgan, bugungi xayotimiz uchun xizmat kilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir.

Axolining asosiy tabakalari va kitobxonlar guruxlarini biliSh juda muxim axamiyatga ega. Mutaxassis xodim axoli tarkibini uning yoShiga karab xisobga olib, kattalarga, bolalarga va o'smirlarga kancha mikdorda kitob, elektron ma'lumot, Internet xizmati ko'rsatiliShi kerakligini, axolining aytib o'tilgan yoShdagi guruxlarning xar biri uchun kancha va kanday kitoblar, axborotlar tanlaSh kerakligini, katta yoShdagilar va bolalarga xizmat ko'rsatiShni kanday kilib yaxShirok uyuShtiriSh mumkinligini aniklab oladi.

Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari xar bir millat vakiliga uning o'z ona tilidagi adabiyot bilan xizmat ko'rsatiSh uchun axolining milliy tarkibini xam xisobga oliShi zarur.

Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari xizmat ko'rsatayotgan joyning tabiiy Sharoitlarini e'tiborga oiiShi juda muximdir.

Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxona iShi, boShka xar kanday tarbiyaviy iSh singari, avalo, kiShilarga individual yondaShib iShlaShdir. Shuning uchun ularning individual kizikishlarini o'rganiSh axborot-kutubxona faoliyatining muxim Shartidir. Kitobxonlar kizikiShini chukur o'rganiSh borasida ularning individual psixologik xususiyatlari -akliy xususiyati, tafakkuri, zexni, idrok etiShi va xokazolar-bilib olinadi. Bu esa kitobxonlar kizikiShini orttiriSh va kondiriShni engillaShtiradi.

Foydalanuvchi talabining turlari (anik, noanik, mavzular bo'yicha) va individual axborotlar

Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxonalarda kitobxonlar bilimlar tizimi, o'kuv ko'nikmalari va malakalarini egallaSh orkali o'zlarining bilimlarini oShirib

boradilar, Shuning bilan birga, ilmiy tuShunchalarning tub ma'nosini onglariga singdirib boradilar. Bu ishlarning barchasini izchillik bilan ketma-ket, bir tekis amalga oShiriSh uchun kitobxonlar ma'lum darajada bilimlar va ko'nikmalarni egallagan, kolaversa, tafakkur Shakllari (tuShuncha, xulosa chikariSh) va mantikiy fikr yuritiSh koidalari xamda uslublarini o'zlaShtirib olgan bo'lishlari lozim.

SHunday kilib, axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxona iSh jarayonini faollaShtiriSh, mazmunan umumlaShtiriSh nazariyasi, ijodiy faoliyatni boskichma-boskich ShakllantiriSh nazariyasi, kitobxonlarda biliShga kizikiShni tarkib toptiriSh, kitobxon talabini bajariSh, ularga individual yondoShiSh, o'z vaktida ma'lumot beriSh, fakat Shu kitobxon uchun zarur axborot bilan ta'minlagan xolda uning talabini kondiriSh, xamkorlik faoliyati, o'zlaShtiriSh samaradorligiga eriShiSh, kutubxona tizimida muammoli iSh olib boriSh individual kitobxon bilan iShlaShga yordam beradi. Axborot – kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxona faoliyatida kitobxon talabini kondiriShda ko'l keladigan muammoli vaziyat yaratiSh lozim. Muammoli vaziyat axborot-kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxonalar tizimida faol, kitobxonlarni ijodiy fikrlaShga yo'naltiruvchi usul sifatida kitobxon talabini aniklaShda ko'llaSh yaxshi natija beradi.

Kitobxon bilan individual iShlaShni taShkil kiliShda ikki asosiy yo'naliSh mavjud:

1. Kitobxon extiyojini kondiriSh.
2. Kitobxon kizikiShi va o'kiShiga ta'sir ko'rsatiSh.

Bu xar ikkala yo'naliSh individual iShlaShning turli xil Shakllari yordamida amalga oShiriladi.

Kitobxonlar bilan individual iShlaSh Shakllariga suxbat, talabni kondiriSh turlari, individual axborot, maslaxat o'tkaziSh kabilar kiradi.

Kitobxon extiyoji. Odatda kitobga bo'lgan talabni uch turga ajratadilar: anik talab, mavzuga oid talab, noanik talab yoki so'rok.

Kitobga **anik talabda** mutaxassis xodimning iShi ancha engillaShadi. Ammo bu talabni anik va tez kondiriSh uchun asar nomini to'g'ri aytiSh, kitob xakidagi ma'lumotlarni anik ko'rsatiSh juda muxim axamiyatga ega, buni xar kanday foydalanuvchi xam uddalayvermaydi. Shuning uchun mutaxassis xodim uni aval elektron katalog bo'yicha tekShirib ko'riShi maqsadga muvofikdir. SHunday kilinsa, ko'pincha kitobxon foydalanuvchi keyinchalik zarur bo'lganda, kerakli adabiyotni mutaxassis xodimning yordamisiz mustakil topa oliShga o'rganadi. Birok muayyan extiyojni kondiriSh bilan birga, mutaxassis xodim Shunchaki kuzatuvchi bo'lib kololmaydi. Agar zarur kitob tokchada bo'lmasa, mutaxassis xodim uning o'rniga xuddi Shu mavzuga oid boShka asar yoki yangi naShrni beradi yoki ko'Shimcha adabiyotlar tavsiya kiladi.

Foydalanuvchi kitobxonning muayyan talabini bajarar ekan, mutaxassis xodim o'zining tarbiyachilik vazifalarini esda saklaShi kerak. Masalan, o'n olti yoShli yigitcha kat'iyat bilan Mopassan yoki Zolyaning asarlarini so'raShi yoki tuliksiz o'rta ma'lumotli radio xavaskori radiotexnikaga, telekommunikatsiyaga oid murakkab ilmiy kitobni talab kiliShi mumkin va xokazo.

Mutaxassis xodim bunday talabga befarq bo'lmashligi kerak. U tanlangan kitob zerikarli bo'lishi yoki xaddan tashkari uzun asar kitobxonning vaktini bekor ketkazish i, xatto uni kiziktiraolmasligi masaladan ko'nglini sovutishi xam mumkin. Bu o'rinda mutaxassis xodim kitobxonga talab kilinayotgan kitobga mos keladigan boShka kitobni tavsiya kiliShi mumkin. Bu ish odob bilan bajarilishi, kutubxonachi o'zining tavsiyasi bilan kitobxon asabiga tegmasligi lozim. Agar kitobxon aytganida kattik turib olsa, mayli, kitobni ola kolsin va u kitobni bekorga olganiga ishonch xosil kilsin.

Mavzuli talab. Axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxona kitobxonlarining mavzuga doir extiyoji turli-tumandir. Kitobxonlar axborot –kutubxona, axborot resurs markazlari va kutubxonaga o'z malakalarini oshirishlari uchun, ma'ruza yoki referat yoziSh uchun adabiyot so'rab keladilar, bulardan tashkari ularga xalkaro xayot mavzusidagi adabiyotlar, kompyuterlar xakida, avtomatlashtirilgan ish urinlarida kullaniladigan maxsus dastur, xisoblash mashinalari, kishlok xo'jalik zararkunundalariga karshi kuraShish xakida, axlok xakida, bola tarbiyasi xakida, milliy kadriyatlarimiz xakida, o'tmishimiz, tariximiz, o'lkamiz xakida yozilgan kitoblar kerak.

Mavzularning xilma-xilligi mutaxassis xodimdan barcha soxaga oid bilimlarni bilishni, axborot-kutubxonaning ma'lumot bibliografiya apparatidan, elektron katalogdan, Internetdan foydalana olishini talab kiladi.

